

Brifing | Termiz shahrida ta'lim sifatini yaxshilash hamda ta'lim tizimidagi o'zgarishlar xususida



Brifing | Termiz shahrida ta'lim sifatini yaxshilash hamda ta'lim tizimidagi o'zgarishlar xususida

Termiz shahar hokimi o'rinbosari Kamol Ashurov ishtirokida brifing o'tkazildi.

Unda mavzu yuzasidan batafsil axborot berildi.

Termiz shahrida 2022-2023 o'quv yilida jami **32 ta** ta'lim muassasalari faoliyat ko'rsatadi, shundan, shahar xalq ta'limi bo'limiga qarashli **26 ta** umumiy o'rta ta'lim maktablari, **1 ta** Prezident maktabi, Prezident ta'lim muassasalari agentligiga qarashli **2 ta** (1-sonli ixtisoslashgan maktab-internati, 3-sonli ixtisoslashtirilgan umumta'lim maktabi) ixtisoslashtirilgan maktab va maktab-internati, **1 ta** R.Choriyev nomidagi san'atga ixtisoslashtirilgan maktab-iyenternati, **2 ta** (Zvezda-vostoka NDTM, Genius Academy Termez NDTM) nodavlat ta'lim muassasalari faoliyat olib bormoqda.

2023 yil 23 fevral holatiga shahar xalq ta'limi bo'limiga qarashli umumiy o'rta ta'lim maktablarida **34 ming 382 nafar** (shundan **17106 nafari** qiz bolalar) o'quvchilar ta'lim-tarbiya olishmoqda.

Tizimdagi yangiliklar xususida:

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi raxbarining 2023 yil 18 yanvardagi № 02-PA 1-740-sonli topshirig'iga muvofiq 2023 yildan o'quvchilarni maktablarda ikkita xorijiy til va bitta kasbga o'rgatish hamda 11-sinfni - "Xayot maktabi" etib belgilab, ularni daromad topadigan ish bilan ta'minlash maqsadida aniq chora-tadbirlar belgilandi. Xorijiy tillarni o'rgatish zamon talabi hisoblanadi shu sababli davlatimiz rahbari tomonidan maktab o'quvchilarini **ikkita xorijiy til** va bitta kasbga o'rgatish bo'yicha belgilangan chora-tadbirlar ijrosini Termiz shahridagi 26-sonli umumta'lim maktabida Surxondaryo viloyatidagi maktab o'quvchilarini ikkita xorijiy til va bitta kasbga o'rgatish hamda 11-sinfni - "Hayot maktabi" etib belgilash mavzusida o'quv amaliy seminari tashkil etildi.

Termiz shahar xalq ta'limi tasarrufidagi umumta'lim maktablarida 2-xorijiy til hamda kasb o'rgatish bo'yicha namunaviy maktablar etib 5 ta umumta'lim maktabi 1-sektor 12-maktab, 2-sektor 3-maktab, 3-sektor 6-maktab, 4-sektor 13-26-maktablar etib belgilab olindi. Ushbu maktablarda 2-chi xorijiy til sifatida 12-maktab nemis-tili, 3-maktab nemis-tili, 6-maktab nemis-tili, 13-maktab fransuz-tili, 26-maktab nemis tili sifatida o'qitilishi rejalashtirildi.

2022-2023-o'quv yilida 26 ta umumta'lim maktablarida o'quvchilarni kasbga o'qitish bo'yicha jami 21 turdagi ishchi kasblar tashkil etildi. Ushbu to'garaklarga 80 nafar oliy ma'lumotli mutaxassis o'qituvchilar tomonida 6758 nafar o'quvchilarga kasbga o'rgatish to'garaklari reja asosida o'tib kelinmoqda.

Umumta'lim maktablarida o'quvchilarga quyidagi kasblar o'qituvchilar tomonidan o'rgatilib kelinmoqda. Jumladan:

Termiz shahridagi barcha umumta'lim maktablari o'quvchilarga tikuvchilik, qandolatchilik, duradgorlik, elektropayvandchi, kompyuter operatori-kotiba, poyafzal

ta'mirlash, kashtachilik, limonchilik, issiqxona ishchisi, parda tikuvchi, milliy taomlar oshpazi, ayollar sartaroshi, kulolchilik, bog'dorchilik (ko'chatchilik), dexqonchilik, erkaklar sartaroshi kabi kasblar o'rgatib kelinmoqda.

O'quvchilarni kasbga o'rgatish bo'yicha barcha umumta'lim maktablarida to'garaklar xonasi tashkil etilgan.

Bundan tashqari, 4 ta sektor kesimida barcha maktablarda 2023 yilda 11-sinf o'quvchilarini OTMLariga kirish ko'rsatgichini oshirish maqsadida seminarlar o'tkazilmoqda.